

TILSHUNOSLIKDA SEMASIOLOGIYA VA SEMATIKANI O'RGANISH

Saydullayeva Ziyodaxon Lutfiyor qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 203 -guruh talabasi

Arabboyeva Mahfuza Akromjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi o'qtuvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada tilshunoslikning semasiologiya va sematika haqida so'z yuritiladi. Sematikaning xususiyatlari hamda ma'no ko'chish turlari haqida yoritiladi.

Kirish so'zlar: Sematika, semasiologiya, so'zlarning shakl va ma'no munosabati, ma'no ko'chish usullari.

Аннотация: В данной статье рассматриваются семасиология и сематика языкознания. Будут раскрыты особенности сематики и виды передачи смысла.

Вводные слова: Сематика, семасиология, связь формы и значения слов, способы передачи значения.

Annotatsion: This article deals with semasiology and semantics of linguistics. Features of semantics and types of meaning transfer will be covered.

Key words: Semantics, semasiology, relationship between form and meaning of words, methods of transfer of meaning.

Lug'atshunoslikning eng muhim va markaziy yo'nalishlaridan biri bu ma'nodir. O'quvchi leksik birlikning ma'nosini bilish uchun ham lug'atga murojat qiladi.

Ma'no birgina tilshunoslikning emas, balki falsafa, mantiq va psixologiya kabi fanlarda ham o'rganiladi. Ammo, yuqoridagi fanlar ham tilshunoslik ham ma'noni turli nuqtai nazardan o'rganadi. Shunga qaramay ma'noning oddiy yechimi topilmagan.

Tilshunoslikning ma'noni o'rganuvchi bo'limi nomi sematika yoki semasiologiya deb yuritiladi. Sematika so'zi qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib, "belgilamoq", "ifodalamoq" degan ma'nolarni anglatadi. Sematikaning o'rganadigan olimlar hali ham semasiologlar sanaladi.

Sematika:

- 1) Til yoki uning biron bir birligini (so'z, so'zning gramatik "shakli frazeologizm, so'z birikmasi) orqali ifodalangan butun mazmun, ma'no, axborot
- 2) Turli til birliklarining ma'noviy tamoni o'rganuvchi tilshunoslikning bo'limi.

Sematikaga oid muommolar falsafiy tafakkur sabab qadimgi davrlardayoq ko'tarila boshlagan. So'z ma'nosining kelib chiqishi, uning borlik va tafakkur bilan aloqasi antic davrlardayoq baxslar va munozalarga sabab bo'lgan. Antik davrlarda analogistlar hamda anamalistlar tamoni baxs va munozalarga olib borgan bo'lsa, o'rta asrlarda nominalistlar, realistlar hamda konseptualistlar tamoni turli xil talqinlar ilgari surilgan.

Keyinchalik, XIX – asr oxiri – XX-asr boshlarida sematikaning rivojlanishi deyarli faqat tilshunoslikning turli xil psixologik yo'nalish vakillari tomonidan amalga oshirildi. Vunt, Rozvadovkiy, Martinak, Yabergning singari olimlar sematikani alohida o'rgandi. Ular "aqliy

jarayonlar” ning individual ongidan sodir bo’ladigan qonuniyatlarining asosini topishga harakat qiladilar. 1910-1920-yillarda sematikaga alohida jalb qiladi.

Tilshunoslikda tilning turli xil sathlardagi birliklarining ma’nosini tadqiq etish semasiologiya fanining vazifasi sanaladi. Lisoniy ma’no, yangi til birliklari anglatayotgan ma’no uning o’rganish predmeti hisoblanadi. Til birliklarining ma’nosini tadqiq qiladi.

Bilamizki, bizning bobokalanlarimiz ham tilshunoslikka, xususan turkiy tillar tilshunosligiga katta xissa qo’shgan. Xususan Mahmud Kashg’ariy o’zi ham “Devoni lug’atit turk” asari arab tili va arab tilshunosligi an’alarida yozilgan bo’lsada, unda qadimgi turkiy til hamda eski turkiy til lug’at tarkibidagi so’zlarning ma’nolari izohlangan. Bundan ko’rish mumkinki, semasiologiya alohida soha sifatida dastlab leksikografiya tarkibida rivojlangan.

Keyingi davrlarda “semasiologiya” termini bilan “sematika” ham qo’llanib kelinmoqda.

“Semasiologiya” atamasi Rayzig tomonidan 1939-yilda birinchi marta qo’llanilgan bo’lsa-da, “sematika” termini undan ancha oldin 1883-yilda fransuz tilshunosi M.Breal tomonidan fanga olib kirilgan. Demak, fanda “semasiologiya” terminidan oldin “sematika” termini qo’llangan.

Leksik sematikaning asosiy katagoriyasi, markaziy tushunchasi- leksik ma’nodir. Har qanday leksik birlik ikki jihatning – nom (shakl) va leksik ma’noning barqaror birikuvidan tashkil topadi.

Tilda ma’no va nom o’rtasidagi bog’lanish tabiiy emasligiga, ya’ni birinchisi ikkinchisidan kelib chiqmasligiga, asosan, quyidagilar sabab bo’ladi.

1) Muayyan bir ma’no har bir tilda har xil ifodalanadi. Bitta ma’no turli tillarda turli nomlanadi. Misol qilib “gul” so’zini olamiz. Ushbu so’z sememasi o’zidan ifor taratadigan, ko’pchilik ayollar uchun sevimli o’simlik. Ammo, shu o’simlik o’zbek tilida “gul” deb nomlansa, turkiy tillar oilasiga mansub hozirgi turk tilida “cicek” deb nomlanadi. Inglis tilida esa “flower” deb yuritiladi. Rus tilida bo’lsa “цветок”, arab tilida “ورد” deb yuritiladi. Ko’rib turganingizdek, bitta ma’noni anglatuvchi so’zlar turli xil nomlarda kelmoqda. Agar bitta umumiy ma’no va nom orasida tabiiy bog’lanish bo’lganda, bitta umumiy ma’no yagona nom bilan yuritilardi. Ammo bunday emas. Shu bois dunyoda 3000ga yaqin til bor.

2) Sinonimik hodisa borligi. Bir tilning o’zida ham muayyan ma’no birdan ortiq nomga ega bo’lishi mumkin. Masalan, o’zbek tilida “Aldab, chalg’itib, har qanday ishni o’z foydasiga hal qiladigan, makr-hiyлага usta ma’nosi o’n beshta leksemadan ifodalangan: ayyor, mug’ombir, hiylagar, quv, ustamon, makkor, bog’uli, mo’ltoni, qilvir, shayton, tulki, tullak, qirriq, xirpa, maston. Yuqoridagi so’zlar ham ma’no va nom o’rtasidagi bog’liqlikning tabiiy emasligini ko’rsatadi.

Yuz, chehra, bashara, oraz, ruhsor, aft sinonim so’zlar bitta sinonimik qatorlar deb nomlanadi. Hamma sinonimik qatorda:

- A) Leksemalarning denotativ ma’nosi bir xil, ifoda sememalari har qil bo’ladi.
- B) Ifoda semalari ba’zan darajalanadki. Masalan: yuz, chehra aft, bashara, turq sinonimik qatorda yuzdan boshqa sememalar salbiy bo’yoqdor so’zlar.
- C) Ifoda sememalari bo’lmagan, betaraf ma’noli leksemalar sinonimik qatorning dominantasi sanaladi. Misol: yuz, bet, bashara, oraz, ruhsor, turq, chehra sinonimik qatorida yuz so’zi daminat hisoblanadi.
- D) Leksemalarning turkumlik semalari bir xil bo’ladi. Bunday holler sinonimlarning bir so’z turkumida birlashishini taqoza qiladi.

Yuqoridagi holatdan kelib chiqib, leksik sinonimlar quydagi turlarga bo’linadi.

1. Ma’no sinonimlari – ma’no qirralarida farq qiluvchi sinonimlar.

2. Uslubiy sinonimlar – leksik ma’noning ijobiy yoki salbiy bo’yoqdorligiga ahamiyat qaratadi. Aynan shu uslubiy semalar uslubiy vosita sifatida qiymatini belgilab beradi.
3. Nutqiy sinonimlar – nutqning u yoki bu turiga hosligi bilan o’zora farqlanadi.

Leksemalarning sinonim bo’la olmaydigan holatlari ham mavjud bo’lib, u quydagi holda namoyon bo’ladi.

- 1) Turli xil so’z turkumiga mansub leksemalar. Misol uchun ot bilan sifat, fe’l bilan ravish.
- 2) Bir turkum leksemalarida keng tushuncha nomlari bilan tor tushuncha nomlari. Bu holat ko’proq terminalogiyada uchraydi.
- 3) Ko’p ma’nolilik va omonimiya hodisalari mavjudligi.

So’zlar bir ma’noli hamda ko’p ma’nolik hususiyatiga ega. Fanda bir ma’nolik so’zlarni monosematik so’zlar deb hisoblansa, ko’p ma’nolik hususiyatiga ega so’zlar polisematik so’zlar deyiladi. Bir ma’nolik so’zlarga odam, chumchuq, ravish, tuya leksemalarini misol qilib olsak, ko’p ma’noliklarga quloq, bosh, og’iz so’zlarini misol qilib olishimiz mumkin.

“Tuya” so’zi suvga chidamli, asosan, insonlar cho’llarga safarga chiqanda manzilga yetkazuvchi ulov sifatida foydalanadigan hayvon keladi. Bu so’z hayvon ma’nosidan boshqa narsani ifodalamaydi.

Ko’p ma’nolik hodisasida esa leksemalar o’z va ko’chma ma’nodan iborat bo’ladi. Misol uchun “bosh” so’zini odamning ta’na a’zosi ekanligi o’z ma’nosi bo’lsa, ko’chaning boshi, oila bo’shi uning ko’chma ma’nosidir.

Tilshunoslikda ma’no ko’chishning asosan to’rt turi mavjud.

- 1) Metafora – bir predmetning nomini boshqa predmet nomiga ma’lum tashqi o’xshashlik asosida ko’chishi. Misol: odamning og’zi – shishaning og’zi
- 2) Metonimiya – narsa va hodisalarning o’zaro makon va zamondagi aloqadorligi asosida birinchisining nomi ikkinchisiga ko’chishi. Misol uchun: Bedilni o’qidik. Bunda Bedilni o’qib bo’lmaydi, chunki u shaxs. U yaratgan asarnigina o’qish mumkin.
- 3) Sinekdoxa – bo’lak orqali butunni yoki butun orqali bo’lakni ifodalash. Misol uchun: bahor kelishi bilan tuyoqlar soni ko’paydi. Bunda tuyoqlar so’zi orqali butun boshli podani tushunish mumkin.
- 4) Vazifadoshlik – asosan hammasi bitta vazifani bajarish uchun nishlatiladigan buyumlar yoki harakatlarni ifodalaydi. Misol uchun: qushning qanoti – samaliyotning qanoti. Bunda ikkisi ham bitta – muozanatni saqlash vazifasini bajaradi.

Omonimlik hodisasi deganda shaklan bir xil so’zlarning turli xil sememalar anglatishi tushuniladi. Omonimlarning shakli bir xil yozilishi bir xil bo’lsada, turli atash ma’nolarini bildiradi. Misol uchun: soz – soz. “Soz” deganda biz cholg’u asbobini ham, puxta va ma’qul degan ma’noni ham, o’zaro inoq va yaqin degan ma’noni ham anglashimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahliyo Hakimova. "Semasiologiya" Toshkent - 2008.
2. H. Jamolxonov. "Hozirgi o’zbek adabiy tili" Toshkent - "Talqin" - 2005
3. M. Arabboyeva. Zamonaviy ta’lim. Toshkent-2022. №12. 43-47.
4. M. Arabboyeva. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2023. №7. 718-725.

5. Z. Saydullayeva, Davronbek Sotvoldiyev. "Ramazon - oylarning va odamlarning sultoni" "INTERPRETATION AND RESEARCHES".2023. 123-127. <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/1675>
6. Sherboyeva, G., & Ikromov, M. (2023). O 'ZBEK TILI FRAZEMALARINING LINGVOKULTROLOGIK XUSUSIYATLARI. Talqin va tadqiqotlar, 1(30)
7. Усманов Ф. Характеристика действия/бездействия в устойчивых сравнениях узбекского языка / «Теоретические, методологические и прикладные вопросы науки и образования» (Самара, июнь 2019 г.) стр. 114-119. URL: https://naucorp.ru/upload/iblock/dd6/SBORNIK-NK_MT_06_19-ot-30.06.2019.pdf
- 8.Ф.Усманов. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи. URL:<http://library.ziyonet.uz/static/lib/readerpdf/web/viewer.html?file=http://library.ziyonet.uz/uploads/books/251467/5e1c61965017c.pdf>

WORDLY
KNOWLEDGE